

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№7

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
IYUL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



UZBEKISTAN

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
76- sahifa, iyul, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Yashil ish o'rinlari va ekologik ta'lim: o'zbekiston yoshlari uchun yangi imkoniyatlar	12
Rashidov Saidislom, Zaripova Mardona	
Soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash holatlarining informatsion assimetriyaga ta'siri	16
Babanazarova Nilufar Xolmatovna	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda budget mablag'laridan foydalanish mexanizmining o'rni va ahamiyati	23
Rustamova Gulmira Aliqulovna	
Dasturiy mahsulotlar logistikasi	30
Uzaqov Ortik Shaymardanovich	
Banklarda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy natijalar ahamiyati	35
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
Oliy ta'lim muassasalarini "yashil universitet" tizimiga transformatsiya qilish istiqbollari (buxoro davlat texnika universiteti va malayziyaning oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik misolida)	39
Rahmatov Shuxrat Axatovich	
Davlat qarzi siyosati samaradorligini oshirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash	43
Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich	
Оптимизация бизнес-процессов и модернизация занятости в условиях цифровизации	47
Явкачев Шохзод Зайниддин углы	
Strategik rivojlanish sharoitida investitsion jozibadorlikning o'rni	54
Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li	
Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishni rag'batlashtirish	61
Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich	
Альтернативный подход к распределению финансовых ресурсов для эффективного финансирования высшего образования	65
Гулшат Карлибаева	
Banklarda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy natijalar ahamiyati	70
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	

BANKLARDA MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MOLIYAVIY NATIJALAR AHAMIYATI

Djalilov G'ayrat Qaxramanovich

Mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada banklarda moliyaviy barqarorlikning vujudga kelishi va uning o'ziga xos xususiyatlari aniqlangan hamda baholangan. Ushbu kategoriyaga nisbatan mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlari o'rganilgan va tizimlashtirilgan. Moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda kapital yetarliligi va likvidlik ko'rsatkichlariga nisbatan olimlarning qarashlari o'rganilgan. Tadqiqotlar asosida ilmiy xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: banklar barqarorligi, kapital yetarliligi, likvidlik, to'lovga qobiliyatsizlik, aktivlar sifati, kapital va aktivlar rentabelligi.

Abstract: The article identifies and evaluates the emergence and specific features of financial stability in banks. Scientific studies by local and foreign scholars in this area have been examined and systematized. Scholars' views on indicators such as capital adequacy and liquidity in ensuring financial stability have been analyzed. Based on the research findings, scientific conclusions and proposals have been developed.

Keywords: bank stability, capital adequacy, liquidity, insolvency, asset quality, capital and asset profitability.

Аннотация: В статье выявлены и оценены особенности формирования финансовой устойчивости банков. Изучены и систематизированы научные исследования отечественных и зарубежных учёных по данной категории. Рассмотрены взгляды исследователей на показатели достаточности капитала и ликвидности в обеспечении устойчивости. На основе проведённых исследований разработаны научные выводы и предложения.

Ключевые слова: устойчивость банков, достаточность капитала, ликвидность, неплатежеспособность, качество активов, рентабельность капитала и активов.

KIRISH

Banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda likvidlik va u bilan bog'liq kategoriyalarni tartibga solish orqali ularning barqarorligini ta'minlash mumkinligi ta'kidlab o'tilmoqda. Bizningcha, banklarning likvidligini ta'minlash hamda sof moliyalashtirish me'yori ko'rsatkichi barqarorligini oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi, deb hisoblash muhim ahamiyatga ega. Shu bois, likvidlikni ta'minlashda quyidagi omillarga e'tibor qaratish lozim:

Birinchidan, likvidlikni ta'minlashda yuqori likvidli aktivlar ulushini mo'tadillashtirish, ularning qisqa va uzoq muddatli majburiyatlarga nisbatan muvozanatini ta'minlash.

Ikkinchidan, sof moliyalashtirish me'yorining majburiyatlarga nisbatan ulushini qisqa va uzoq muddatli davrlarda barqarorlashtirishni ustuvor vazifa sifatida belgilash.

Uchinchidan, banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda riskka tortilmagan yoki daromad keltirmaydigan aktivlar ulushining haddan tashqari oshib ketmasligi uchun zarur choralarni ko'rish maqsadga muvofiq hisoblanadi, deb o'ylaymiz.

Umuman olganda, banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy ishlarda kapitalni boshqarish va likvidlikni oshirish yuzasidan turli yondashuvlarga duch kelish mumkin. Masalan, B. Kasimov o'zining ilmiy maqolasida banklarning moliyaviy barqarorligi likvidlik ko'rsatkichi bilan ifodalanishini ta'kidlaydi. Uning fikricha, likvidlik muammosini bartaraf etish orqali aktivlar o'sishini moliyalashtirish va majburiyatlarni o'z vaqtida bajarishga oid amaliyotga erishiladi. Shu nuqtai nazardan, likvidlikni boshqarish bankning aktiv va passiv operatsiyalarini tartibga soluvchi muhim kategoriya bo'lishi bilan birga, risklarni boshqarishda ham asosiy omil hisoblanadi [1].



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

N. Sharipova tomonidan banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan ilmiy-nazariy yondashuvlarni tizimlashtirishga e'tibor qaratilgan. U o'z maqolasida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda mahalliy regulyator talablari va xalqaro standartlar asosida tartibga solishga doir qarashlarni tahlil qilgan. Jumladan, 1995-yilda O'zbekiston Markaziy bankining Bazel qo'mitasi standartlarini qo'llash bo'yicha a'zo davlat sifatida qo'shilganini qayd etadi. Uning fikricha, Bazel standartlarini joriy etishda ayrim murakkabliklar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etish uchun milliy risk baholash standartlarini ishlab chiqish zarur [2].

Sh. Ibodullaev esa banklarning raqobatbardoshligini ta'minlashda passivlar barqarorligining o'ziga xos jihatlari borasida fikr bildiradi. U tomonidan sof foizli spread ko'rsatkichi banklar barqarorligini ta'minlovchi omillardan biri sifatida tahlil qilingan. Jumladan, O'zbekiston Milliy banki va Asaka bank AJda 2019–2023-yillarda sof foizli spread ko'rsatkichi manfiy bo'lganligi ko'rsatib o'tiladi. Bunga sabab qilib, talab qilib olinguncha depozitlardagi mablag'larning kredit manbai sifatida foydalanilishi amaliyotining kengaygani qayd etiladi. Bu holat banklarning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini asoslab beradi. Shuningdek, u sof foizli spreadni hisoblashda inflyatsiyani ham inobatga olish zarurligini ta'kidlaydi [3].

Banklarning moliyaviy barqarorligiga oid masalalar xorijiy tadqiqotlarda ham keng yoritilgan. Masalan, P. O'zili Afrika mamlakatlari bank tizimida moliyaviy barqarorlikni ta'minlovchi ko'rsatkichlarni tizimlashtirishga e'tibor qaratgan. U banklar moliyaviy barqarorligini kredit riski yo'qotish koeffitsienti, to'lovga qobiliyatsizlik riski, umidsiz qarzarlar (NPL) va moliyaviy rivojlanish darajasi orqali baholashga harakat qilgan. Shuningdek, moliyaviy barqarorlik determinantlari sifatida ishonchlilik, chet el kapitalining ishtiroki, bank sektori konsentratsiyasi va hajmi, institutsional sifat va makroiqtisodiy omillar muhim ta'sir etuvchi omillar sifatida ko'rsatilgan. P. O'zili inqirozgacha va inqirozdan keyingi davrlarda iqtisodiy o'sishning banklar barqarorligiga ijobiy ta'sirini, inqiroz davrida esa regulyativ va xorijiy kapitalning asosiy barqarorlashtiruvchi omilga aylanishini ta'kidlaydi [4].

M. Kaur va hammualiflar tomonidan 2005–2022-yillar davomida Hindiston banklarining moliyaviy barqarorligiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni baholashga qaratilgan tadqiqot olib borilgan. Ichki omillar sifatida yuqori rentabellik va kapitalizatsiyaning ortishi barqarorlikni mustahkamlasa, bank hajmining kattalashuvi va boshqaruv xarajatlarning oshishi barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Makroiqtisodiy omillar orasida valyuta zaxirasining yuqoriligi barqarorlikka ijobiy ta'sir etsa, ishsizlik darajasi pasaytiruvchi omil sifatida baholangan [5].

R. Diakonu va hammualiflar tomonidan olib borilgan tadqiqotda Ruminiya banklarining moliyaviy barqarorligiga oid tendensiyalar tahlil qilingan. Ular kapital hajmi, aktiv rentabelligi va kapital-aktivlar nisbati orqali bank barqarorligini aniqlash mumkinligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, inflyatsiya va yalpi ichki mahsulotning o'sishi kabi omillar ta'siri ham o'rganilgan. Ularning fikricha, iqtisodiy o'sish va banklararo foiz stavkalari banklarning moliyaviy barqarorligiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar hisoblanadi [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy maqolada banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy natijalar – sof foyda, rentabellik ko'rsatkichlari, daromadlilik darajasi, kapital va aktivlar rentabelligi kabi omillarning ahamiyatini nazariy va amaliy jihatdan asoslash maqsad qilingan. Shu munosabat bilan maqolada qo'llanilgan metodologik yondashuvlar moliyaviy tahlil, iqtisodiy-statistik baholash, solishtirma tahlil, tizimli yondashuv va deduktiv-induktiv mulohazalarga tayangan. Avvalo, bank moliyaviy barqarorligining zamonaviy konsepsiyalari, ularni aniqlovchi asosiy indikatorlar, milliy va xalqaro tajribadagi yondashuvlar tahlil qilindi. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari faoliyatiga doir 2020–2024-yillar statistik ma'lumotlari asosida moliyaviy natijalar dinamikasi, ularning barqarorlikka ta'siri ko'rsatkichlar o'zaro solishtirilib, grafik va jadval shaklida ifodalandi. Moliyaviy ko'rsatkichlar tahlilida aktivlar rentabelligi (ROA), kapital rentabelligi (ROE), sof foiz daromadi, xarajatlar rentabelligi, moliyaviy vositachilik koeffitsienti kabi kompleks indikatorlar o'rganildi. Tadqiqotda shuningdek, davlat ishtirokidagi va xususiy banklar o'rtasida moliyaviy natijalar bo'yicha farqlar aniqlanib, ularning barqarorlikka ta'siri empirik tarzda baholandi. Ushbu yondashuvlar asosida banklarda moliyaviy natijalarni strategik boshqarish orqali barqarorlikni mustahkamlash yo'nalishida amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiluvchi ilmiy asoslar yaratildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, milliy iqtisodiyotda davlat ulushi mavjud banklar asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar bo'yicha yuqori ulushga ega bo'lib bormoqda. Masalan, iqtisodiyotdagi kreditlarning umumiy hajmida davlat ishtirokiga ega banklar tomonidan taqdim etilgan kredit mablag'lari salmoqli bo'layotgani kuza-tilmoqda. Shuningdek, iqtisodiyotdagi bank aktivlari tarkibida ham davlat banklarining ulushi nisbatan yuqori bo'layotganligi e'tiborga loyiqdir.



1-jadval: 2025-yil 1-iyun holatiga tijorat banklarining faoliyati asosiy ko'rsatkichlari [7]

№	Ko'rsatkich nomi	Aktiv	Kredit	Kapital	Depozit
	Bank nomi	ulushi (%)	ulushi (%)	ulushi (%)	ulushi (%)
Jami		100%	100%	100%	100%
	Davlat ulushi mavjud banklar	65%	68.6%	61,1%	51,4%
1	O'zmilliybank	16,6%	19,1%	15,7%	12,1%
2	O'zSQB	11,4%	12,1%	8,8%	7,3%
3	Agrobank	11,0%	12,5%	11,3%	6,8%
4	Asaka bank	7,6%	7,0%	6,6%	5,3%
5	Xalq banki	5,8%	5,3%	7,2%	7,5%
6	BRB	4,2%	4,2%	4,1%	3,8%
7	Mikrokreditbank	3,3%	3,5%	3,0%	2,5%
8	Aloqa bank	3,1%	2,6%	2,8%	4,4%
9	Turon bank	2,2%	2,3%	1,6%	1,6%
	Boshqa banklar	35%	31.4%	38,9%	48,6%
10	Ipoteka-bank	6,1%	6,2%	5,7%	7,2%
11	Kapital bank	5,9%	6,0%	4,7%	11,1%
12	Hamkorbank	3,7%	3,5%	4,8%	3,5%
13	Ipak yo'li bank	2,9%	2,6%	3,3%	3,5%
14	O'FB	2,2%	2,3%	2,9%	3,4%
15	Trast bank	1,5%	1,1%	2,6%	2,6%
16	Tibisi bank	1,5%	1,8%	2,1%	1,8%
17	IFB	1,5%	1,4%	1,3%	2,7%
18	Anor bank	1,5%	1,4%	1,0%	3,0%
19	Bosqa xususiy banklar	13.6%	5,1%	10,5%	9.8%

Fikrimizcha, milliy iqtisodiyotda bank aktivlarining ulushi yuqori bo'layotganligi kuzatilmoqda. Ushbu ko'rsatkichning shakllanishi, bir tomondan, davlat ishtirokidagi banklarning milliy iqtisodiyotdagi ta'sirining kuchli ekanligini ko'rsatsa, boshqa tomondan, bu holat aktivlar tarkibida riskka tortilgan vositalar ulushining ortishiga sabab bo'lishi mumkin. Natijada, davlat banklari tarkibidagi moliyaviy institutlarda kredit riski bilan bog'liq muammolar nisbatan kengroq ko'lamda yuzaga kelishi ehtimoli mavjud bo'lib, bu holat tegishli gipotezani ilgari surishga asos yaratadi.

Shuningdek, 1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, kapital ulushi nuqtai nazaridan davlat ishtiroki mavjud bo'lmagan banklar ko'rsatkichlarining nisbatan yuqori ekani e'tiborga loyiq. Ularning kapitaldagi ulushi 40 foizga yaqinlashgan bo'lib, bu holat aktivlarga nisbatan yuzaga keladigan moliyaviy tavakkalchiliklar nisbatan kamroq bo'lishi mumkinligidan dalolat beradi. Bundan tashqari, davlat ishtiroki mavjud bo'lmagan tijorat banklarining milliy iqtisodiyotdagi jami depozit mablag'laridagi ulushi 5 foizga yaqin ekani, davlat banklari tomonidan aktivlar shakllanishida faqat depozit manbalaridan emas, balki boshqa moliyalashtirish vositalaridan ham faol foydalanilayotganini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bizningcha, davlat ishtiroki mavjud bo'lmagan banklar iqtisodiyotda mavjud bo'sh pul mablag'larini jalb etishda nisbatan jozibador takliflar bilan ajralib turmoqda. Bu holat ularning aktivlarini shakllantirishda depozit resurslarining rolini mustahkamlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu nuqtai nazardan, tijorat banklarining mulkchilik shakli ularning moliyaviy barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri ekani alohida ta'kidlanishi lozim. Ayniqsa, banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda ularning moliyaviy natijalari – sof foyda, daromadlilik, aktivlar rentabelligi, kapital rentabelligi kabi ko'rsatkichlarning ahamiyati katta bo'lib, ular bank ichki boshqaruvinining samaradorligini aks ettiradi. Ushbu moliyaviy natijalar banklarning resurs bazasini kengaytirish, moliyaviy risklarni qoplash hamda investitsion salohiyatini oshirishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Yuqori moliyaviy natijalarga ega banklar nafaqat o'z kapitalarini samarali boshqa-



radi, balki mijozlar va investorlar ishonchini orttirish orqali barqaror rivojlanish imkoniyatiga ham ega bo'ladi. Shu bois, banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash uchun, bir tomondan, moliyaviy natijalarni oshirishga qaratilgan ichki boshqaruv tizimini takomillashtirish, ikkinchi tomondan esa, davlat ishtirokidagi va xususiy banklar o'rtasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish orqali xizmatlar sifati va moliyaviy resurslarga bo'lgan ishonchni kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, depozit mablag'larini jalb qilishda jozibador va diversifikatsiyalangan takliflar ishlab chiqilishi, resurslar bazasining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Banklar faoliyatida moliyaviy natijalarni monitoring qilishda esa nafaqat an'anaviy hisobot ko'rsatkichlari, balki faoliyat barqarorligini ta'minlovchi strategik yondashuvlarning ham inobatga olinishi zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kasimov B. U. Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini oshirish yo'llari // Theory and Analytical Aspects of Recent Research. – 2025. – T. 3. – № 33. – B. 264–269.
2. Sharipova N. H. Banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda Bazel talablarining bajarilishi // Iqtisodiy Taraqqiyot va Tahlil. – 2024. – T. 2. – № 4. – B. 631–636.
3. Ibodullaev Sh. T. Passivlarning barqarorligini ta'minlash tijorat banklarining raqobatbardoshligini ta'minlashning zaruriy sharti sifatida // Iqtisodiy Taraqqiyot va Tahlil. – 2024. – T. 2. – № 9. – B. 268–276.
4. Ozili P. K. Banking stability determinants in Africa // International Journal of Managerial Finance. – 2018. – Vol. 14. – № 4. – P. 462–483.
5. Kaur M., Kaur M. Determinants of banking stability in India // The Bottom Line. – 2025. – Vol. 38. – № 1. – P. 49–70.
6. Diaconu R. I., Oanea D. C. The main determinants of bank's stability: Evidence from Romanian banking sector // Procedia Economics and Finance. – 2014. – Vol. 16. – P. 329–335.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100